

Date: 21st October-2025

**“YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARI: BEMORLARNI SUBYEKTIV
TEKSHIRISH VA EPIDEMIOLOGIYASI”**

Ergashev Shahzod Zoxirjon o'g'li

Buxoro davlat tibbiyot instituti “Pediatriya ishi”2-kurs talabasi

Abdurahmonov Komil Abdig'appon o'g'li

Buxoro davlat tibbiyot instituti “Pediatriya ishi”2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurak-qon tomir tizimi kasalliklari zamonaviy tibbiyotning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri sifatida o'rganiladi. Maqolada ushbu kasalliklarning asosiy turlari, ularning klinik ko'rinishlari, bemorlarni subyektiv tekshirish bosqichlari va epidemiologik holati tahlil qilinadi. O'zbekiston va jahondagi statistik ma'lumotlar asosida yurak-qon tomir kasalliklarining tarqalish darajasi yoritiladi. Shuningdek, maqolada sog'lom turmush tarzi, erta tashxis va profilaktik choralar yurak salomatligini saqlashda qanchalik muhim ekani alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Subyektiv tekshirish usuli, yurak ishemik kasalik (YIK), gipertoniya, stenokardiya, perikardit.

Abstract: This article studies diseases of the cardiovascular system as one of the most important and urgent problems of modern medicine. The article analyzes the main types of these diseases, their clinical manifestations, stages of subjective examination of patients and the epidemiological situation. The prevalence of cardiovascular diseases is highlighted based on statistical data in Uzbekistan and the world. The article also emphasizes the importance of a healthy lifestyle, early diagnosis and preventive measures in maintaining heart health.

Keywords: Subjective examination method, ischemic heart disease (IHD), hypertension, angina pectoris, pericarditis.

Аннотация: В статье рассматриваются заболевания сердечно-сосудистой системы как одна из важнейших и актуальных проблем современной медицины. В статье анализируются основные виды этих заболеваний, их клинические проявления, этапы субъективного обследования пациентов и эпидемиологическая ситуация. На основе статистических данных освещена распространенность сердечно-сосудистых заболеваний в Узбекистане и мире. В статье также подчеркивается важность здорового образа жизни, ранней диагностики и профилактических мер в сохранении здоровья сердца.

Ключевые слова: Субъективный метод обследования, ишемическая болезнь сердца (ИБС), гипертоническая болезнь, стенокардия, перикардит.

1. Kirish

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bugungi kunda dunyo bo'yicha o'lim holatlarining asosiy sabablaridan biridir. Bu guruhga yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti, insult, gipertoniya, yurak yetishmovchiligi kabi patologiyalar kiradi.



Date: 21stOctober-2025



Kasalliklarning rivojlanishida turmush tarzining o'zgarishi, sog'liqqa zararlanish ovqatlanish odatlari, stress, jismoniy faollikning yetishmasligi va boshqa omillar katta rol o'ynaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) malumotlariga ko'ra yurak-qon tomir kasalliklari har yilli 17.9 million inson hayotiga zomin bo'lmoqda. O'zbekistonda 2024-yilning yanvar-sentabrda oylarida qayd etilgan 131,7 ming o'lim holatlarning 57.2 foizini tashkil qilgan. (O'zbekisto Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra). Ushbu ko'rsatkichlar YQTTK nafaqat tibbiy balki ijtemoiy-iqtisodiy muomo sifatida ham dolzrbligini ko'rsatadi.

Yurak ishemik kasalik (YIK):

Gipertoniya: Gipertonziya, shuningdek, yuqori qon bosimi deb ham ataladi, bu tibbiy holat bo'lib, unda qonning tomirlar devorlariga ta'siri doimiy ravishda juda yuqori bo'ladi. Arterial gipertoniya sistolik qon bosimining 140 mm.sim.ust.dan yoki diastolik qon bosimining 90 mm.sim.ust.dan kam bo'lmagan darajada barqaror o'sish hisoblanadi. Etalogiyasi ko'ra birlamchi va ikkilamchi arterial gipertoniya bo'linadi. Birlamchi Arterial gipertoniya qon bosimining oshishi uchun potensial bartaraf etilagan sabablar mavjud bo'lmaganda tashxislanadi. Arterial gipertoniya ning xavli omillarining kelib chiqish sabablari:

- ✓ Kam harakat turmush tarzi.
- ✓ Tuzni ko'p istemol qilish.
- ✓ Chekish va spirtli ichimliklar.
- ✓ Stress.

Ikkilamchi har qanday sabablarga bog'liq bo'lgan holat

Arterial gipertoniya bilan kasalangan bemor belgilari:

- ✓ Qattiq bosh og'rig'i.
- ✓ Nafas qisilishi.
- ✓ Burundan qon ketish.
- ✓ Bosh aylanishi.
- ✓ Ko'krak og'rig'i.
- ✓ Ko'rish muammolari.

Stenokardiya: (yurak sohasida bosim yoki siqilish bilan ifodalanadigan og'riq).

Yurak mushagining ozuqa va kislarod yetishmasligi natijasida yuzaga keladigan kasalik. Stabil bo'lmagan angina bilan og'rikan bemorlarda og'riq kuchliroq, uzoq muddatli yoki oldindan aytib bo'lmaydigan bo'lishi mumkin.

Turlari:

- Turg'un zo'riqishdan keyin stenokardiya.
- Noturg'un stenokardiya.
- Variant stenokardiya (Prinsmetal stenokardiya).
- Og'riqsiz miokard ishemiyasi.

Belgilari: Ko'krakda siqilish yoki og'riq (yurak sohasida sanchiluvchan og'riq).

- ✓ Siqilish, bosim yoki siqish hissi.
- ✓ Yelka, qo'l, bo'yin, jag' yoki orqaga tarqaladigan og'riq.

Date: 21stOctober-2025

- ✓ Ko'pincha ko'ngil aynishi, terlash yoki bosh aylanishi bilan bog'liq.
- ✓ Nafas siqishi.
- ✓ Yurak urushning tezlashishi(taxikardiya).
- ✓ Xavli omillari:
- ✓ Chekish.
- ✓ Ortiqcha vazn.
- ✓ Asab-psixologik zoriqishlar.

Perikardit: Perikardit-bu yurakni o'rab turgan seroz parda, ya'ni perikardning yallig'lanishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. U o'tkir, subo'tkir yoki surunkali kechishi mumkin. Ba'zida u mustaqil kasallik sifatida, ba'zida esa boshqa yurak yoki umumiy infeksiyon kasalliklar fonida rivojlanadi.

Belgilari:

- ✓ Nafas qisishi, ayniqsa jismoniy faollik paytida yoki yotgan holatda kuchayadi.
- ✓ Oyoq va boldirlarda shishlar (odatda kechqurun paydo bo'ladi).
- ✓ Tez charchash, umumiy holsizlik.
- ✓ Yurak urishining tezlashuvi (taxikardiya).
- ✓ Tunda bezovta qiluvchi yo'tal yoki nafas qisish bilan uyg'onish.
- ✓ Nafas olishning qiyinlashuvi va ko'krak sohasida og'riq.

Kelib chiqish sabablari:

- ✓ Ishemik yurak kasalligi.
- ✓ Miokard infarkti.
- ✓ Arterial gipertenziya.
- ✓ Yurak klapanlari nuqsonlari (masalan, mitral yoki aortal stenoz).
- ✓ Kardiomiopatiyalar.
- ✓ Aritmiyalar (ritm buzilishlari).
- ✓ Miokardit va endokardit kabi infeksiyon kasalliklar.
- ✓ Endokrin buzilishlar (masalan, gipotireoz yoki gipertireoz).
- ✓ Spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish, zaharlanishlar.

Tadqiqotni maqsadi- bemorlarni subyektiv tekshirish bosqichlarini tahlil qilish, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining asosiy klinik belgilarini aniqlash va ularning epidemiologik ko'rsatkichlarini baholashdir.

1. Metodlar

Tadqiqotlar davomida quydagi metodologik yondashuvlardan foydalanadi:

Adabiyot tahlili: Narziyev Sh.S., Hazratov O.H., Xalilova F.A. "Ichki kasalliklar propedevtikasi.", Juraeva H.I., Raxmatova D.B., Mavlonov N.H. "Klinik kardiologiya." kabi o'quv manbalar o'rganiladi.

Statistik tahlil: JSST, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda ESC(European Society of Cardiology) ma'lumotlar tahlil qilinadi.



Date: 21st October-2025

Taqqoslovchi tahlil: turli yurak kasalliklari (gipertoniya, stenokardiya, perikardit) simptomlar o'zaro solishtiriladi.

Tadqiqotlar 2024-yil davomida yig'ilgan malumotlar asosida olib boriladi.

2. Natijalar

2.1 Bemorlarni subyektiv tekshirish bosqichlar

Bemorlarni subyektiv tekshirish tibbiy diagnostikaning birinchi va muhim bosqichidir. U quydagi elementlardan iborat.

1. Asosiy shikoyatlar: Yurak sohasida og'riq, yurak urishining tezlashuvi, hansirash, nafas qisishi, bosh aylanishi.

2. Qo'shimcha shikoyatlar: Quloqda shovqin, yo'tal, qon tupirish, tez charchash, uyqu buzilishi.

3. Anamnez morbi: Kasallikni paydo bo'lish vaqti, davomiyligi, og'riq xarektiri va intensivligi aniqlanadi.

4. Anamnez vitea: Irsiy omillar, ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlar, stress holatlari.

3.2 Yurak-qon tomir kasalliklarni taqqoslash orqali tahlil qilish.

Kasallik turi	Asosiy belgilari	Epidemologik ko'rsatkichlar
Gipertoniya	Qon bosimi 140/90 mm.sim.ust. dan yuqori bo'lishi, bosh og'rishi, bosh aylanishi, burundan qon ketishi	Dunyo bo'yicha 1.3 mlrd kishi, o'zbekistonda 30 yoshdan katta aholi orasida 30-40%.
Stenokardiya	Yurak sohasida siqilishi, bosim, qo'lga va jag'ga tarqaluvchi og'riq.	45-54 yosh erkaklarda 2-5%, ayollarda 0.5-1%
Perikardit	Nafas qisishi, oyoq shishi, taxikardiya, ko'krak og'rigi	65 yoshdan yuqorilarda keng tarqalgan, yurak yetishmovchiligi bilan bog'liq.

3.3 natijalar

- O'zbekiston aholisida yurak-qon tomir kasalliklari barcha o'lim holatlarning yarmidan ortig'i tashkil qilmoqda.

- Ayollar orasida gipetoniya 50 yoshdan keyin, erkaklarda esa 40 yoshdan keyin keskin oshmoqda.

- JSST malumotiga ko'ra 2030-yilga borib yurak-qon tomir kasalliklaridan o'lim 20% ga oshishi mumkin.

3. Muhokama

Tahlilar shuni ko'rsatadiki, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining ortishida turmush tarzi, stress, noto'g'ri ovqatlanish, kam harakatlik, va chekish kabi omillar yetakchi rol o'ynaydi.

Subyektiv tekshirish jarayonida shifokor bemorning shikoyatlari va anamnezi asosida dastlabki tashxisni shakllantiradi. Bu bosqich yurak-qon tomir kasalliklarni erta



Date: 21stOctober-2025

aniqlash imkoni beradi. Masalan gipertoniyaning dastlabki belgilarini e'tiborga olgan holda insult yoki yurak xurijini oldini olish mumkin.

Epidemiologik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda YQTTK yoshlar orasida ham uchrash ehtimoli ko'paymoqda. Bu esa sog'lom turmush tarzga amal qilib, jismoniy faoliyatini oshirish va tuz este'molini **kamaytirish zarurligini anglatadi.**

Xulosa: Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari nafaqat bemorning hayot sifatiga, balki butun jamiyatning sog'lig'i va iqtisodiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan global muammo hisoblanadi. Kasalliklar sonining ortib borayotgani, ayniqsa yoshlar orasida ham uchrayotgani profilaktik choralarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada yurak-qon tomir kasalliklarining subyektiv tekshiruvi, ularning asosiy simptomlari va epidemiologik ahvoli tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kasalliklarning erta aniqlanishi, xavf omillarining kamaytirilishi va sog'lom turmush tarzini ommalashtirish yurak salomatligini saqlashda eng samarali yo'llardan biridir.

“Yurak salomatligi – jamiyat salomatligi garovi. Har bir fuqaro yuragini asrashi – kelajak avlod sog'lig'iga qo'yilgan zamin bo'ladi.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Narziyev Sh.S., Hazratov O.H., Xalilova F.A. “Ichki kasalliklar propedevtikasi.” – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2021.
2. Juraeva H.I., Raxmatova D.B., Mavlonov N.H. “Klinik kardiologiya.” – Toshkent: “Tibbiyot”, 2020.
3. Gadayev A.G., Karimov M.Sh., Axmedov X.S. “Ichki kasalliklar propedevtikasi.” – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
4. World Health Organization (WHO). “Cardiovascular diseases (CVD)”.
[[https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds))]([https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds)))
5. McDonagh T.A., Metra M., Adamo M., et al. “2021 ESC Guidelines for the diagnosis and treatment of acute and chronic heart failure.”
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. “Statistik axborotlar to'plami,” 2024. [<https://ssv.uz>] (<https://ssv.uz>)
7. Ergashev Sh.Z., Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari: bemorlarni subyektiv tekshirish va epidemiologiyasi // Yuksak ehtirom jurnali. 2025. - №2. -A.

